



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Akhmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon Azamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайбергеневич – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содиқова Шохида Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зоҳидов Азаматджон Аъзамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

SOTSIOLOGIYA

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari..... 4

Jurayeva Sh.S. Globallashuv sharoitida migratsion munosabatlarning oilalar barqarorligiga psixologik ta'siri..... 14

OILA VA JAMIYAT

Nurullayeva U.N. Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'rvonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo'llari 22

Kurbanov E.E. Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi 34

Tashkenbayeva D.B. Turmush o'rtog'i nogiron yoki ruhiy kasal bo'lgan ayollar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar..... 44

PSIXOLOGIYA

Abdusamatov X.U., Sharapova D.B. Uy bekasi sindromining oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar 53

Odilbekov M.M. Turmush o'rtog'i vafot etgan ayollar bilan psixologik ishlash mexanizmlari..... 65

Abduraxmonova F.A. Turmush o'rtog'i bedarak yo'qolgan ayollar bilan ishlash bo'yicha psixologik tavsiyalar 74

Sa'dullayeva J.I. Turmush o'rtog'i jazo muddatini o'tash muassasasidagi ayollar bilan ishlashda psixologik tavsiyalar 84

MAHALLA VA OILA HUQUQI

Alimov S.K. Mamlakatimizda tazyiq va zo'rvonlik holatlaridan jabrlangan ayollarga yordam berish tizimining huquqiy tahlili..... 92

PEDAGOGIKA

Yakubov O. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari 99



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor*



Xonturayev Bobur,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
“Oila demografiyasi va sotsiologiyasi” bo‘limi boshlig‘i*

GENDER YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOYIY- IQTISODIY MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari o‘rganilgan hamda dunyodagi ilg‘or tajribalarni mamlakatimizga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье авторы изучили социально-экономические вопросы направления молодежи в профессию на основе гендерного подхода, а также разработали научные предложения и практические рекомендации по внедрению передового опыта в нашей стране.

Annotation. In this article, the authors studied the socio-economic issues of directing young people to a profession based on a gender approach, and also developed scientific proposals and practical recommendations for the implementation of best practices in our country.

Tayanch soʻzlar: *xotin-qizlar, taʼlim, ilm-fan, bilim va koʻnikmalar, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, elektron navigator platformalari, vaucher, ijtimoiy lift, jamiyat, xorijiy davlatlar tajribasi.*

Ключевые слова: *женщины, образование, наука, знания и навыки, научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы, электронные навигаторные платформы, ваучеры, социальный лифт, общество, опыт зарубежных стран.*

Keywords: *women, education, science, knowledge and skills, research and development work, electronic navigation platforms, vouchers, social lift, society, experience of foreign countries.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning oʻrni va mavqeyini oshirish, yangi avlod yosh olimlarini tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni ragʻbatlantirish boʻyicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni taʼminlash, jumladan, taʼlim va ilm-fan sohasida Oʻzbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yoʻnalishlari qatoriga kiradi.

Bu borada 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining **69-maqsadida: xotin-qizlarning taʼlim va kasbiy koʻnikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama koʻmaklashish, tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini toʻgʻri yoʻnaltirish** vazifasi belgilab qoʻyilgan¹.

Zamonaviy oʻzbek jamiyati bugungi kunda demokratik rivojlanish tomon bormoqda. Demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri ayollar va erkaklarning barcha sohalarda teng huquqliligini eʼtirof etish boʻlib, uni yoshlikdan shakllantirish zarur. Bunga taʼlimda gender yondashuvi tamoyillari yordam berishi mumkin. Taʼlim mazmunini yangilash va umumtaʼlim maktablarini modernizatsiya qilish sharoitida shaxsga taʼlim berishda va uni tarbiyalashda gender yondashuvi muammosi dolzarb boʻlib bormoqda.

Gender taʼlimi koʻplab muhim ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi va uni rivojlantirish zarurati pedagogik jamoalarda tobora koʻproq muhokama qilinmoqda. Biroq koʻpgina davlatlarning maktab taʼlimida gender yondashuvi hali ham kam uchraydi. Gʻarbda gender taʼlimi va tarbiyasi bolalar bogʻchasidayoq boshlanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatda **gender segregatsiyasi** mavjud boʻlib, u jinsga qarab kasbiy ajratishning ikki shakli **Gorizontal va Vertikal segregatsiyaga** boʻlinadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi – xotin-qizlarning taʼlim va kasbiy koʻnikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama koʻmaklashish, tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini toʻgʻri yoʻnaltirish

Ta'lim va ayollarning kasbiy tajribasi o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama – ta'lim va kasb tanlashda teng huquqlarga qaramay, ayollarning mehnat bozorida imkoniyatlari cheklangan.

Gorizontal segregatsiya erkaklar va ayollar faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda sodir bo'ladi.

Vertikal segregatsiya – ma'lum bir kasbda iyerarxiya bo'yicha erkaklar va ayollarning taqsimlanishi.

Gender segregatsiyasi inson ijtimoiy xulq-atvorining psixologik xarakter va xususiyatlari yig'indisiga qarab amalga oshiriladi. Bu ko'pincha jamiyatda ayol va erkaklar uchun martaba ko'tarilishida mavjud to'siqlar shaklida namoyon bo'ladi². Gender segregatsiyasini aniqlash uchun **Shisha shift «стеклянный потолок»** tushunchasi ham qo'llaniladi.

Gender bo'yicha **kasbiy segregatsiyani** tushuntirish uchun **inson kapitali nazariyasi, mehnat bozori segmentatsiyasi nazariyasi va gender nazariyalari** qo'llaniladi.

Inson kapitali nazariyasiga ko'ra, ayollarning oilaviy majburiyatlari yoki bola tug'ilishi natijasida ishda vujudga kelgan uzilishlar tufayli kasbiy tajribasining yetishmasligi ishda erkaklar egallagan malakaga ega bo'la olmasligiga sabab bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, ayollar mehnatining unumdorligi tabiiy ravishda pastroq bo'ladi. Biroq raqobat kuchayishi bilan har ikki jinsdagi ma'lumotli va yuqori malakali ishchilar soni ortib boradi. Ko'rinib turibdiki, bunday sharoitda ayollar mehnat faoliyatining aksariyat turlarida namoyon bo'lishi kerak, aks holda ayollarga nisbatan ochiq diskriminatsiya vujudga keladi.

Shu bilan birga, Richard Anker³ tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar o'g'illari uchun yuqori darajadagi ta'lim beradilar, shuning uchun ayollar nufuzli kasblarni kamdan kam hollarda o'zlashtirishi mumkin. Ta'lim va ayollarning kasbiy tajribasi o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama – ta'lim va kasb tanlashda teng huquqlarga qaramay, ayollarning mehnat bozorida imkoniyatlari cheklangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu nazariya asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, chunki dunyoda nikohning o'rtacha yoshi uzaygan va tug'ilish darajasi pasaygan. Qolaversa, hozirda uy-ro'zg'or ishlarining aksariyati zamonaviy maishiy texnika vositalari yordamida avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu tendensiyalar ayollarning martaba rivojlanishiga bag'ishlagan vaqtlarini bo'shatishga yordam beradi va bu bilan ularning kasbiy tajribasini oshiradi. Biroq mehnat bozorida hozircha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi, kasbiy segregatsiya hamon mavjud.

Bundan tashqari, ish beruvchilar yashirin kamsitish mexanizmlaridan foydalanadi. Ayollarning fikriga ko'ra, oilaviy majburiyatlar doimiy

² Чекалкина А.А. Гендерная психология. – Москва: «Ось-89», 2006. – 131 с.

³ Мезенцева Е.Б. Гендер и экономика: мировой опыт и экспертиза российской практики. – Москва: ИСЭПН РАН-МЦГЫ «Русская панорама», 2002. – С. 299 – 328.

faoliyat va ish jarayonida bevosita ishtirok etishga to‘sqinlik qiladi. Bu hodisa juda keng tarqalgan va ishga qabul qilish bosqichida o‘zini namoyon qiladi. Ish beruvchilar tomonidan ayollarni kamsitishga moyillik G.Bekker⁴ nazariyasining asosini tashkil etdi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, diskriminator ish beruvchining xarajatlari faqat erkak ishchilarni topish uchun pul va vaqtni sarflash natijasida diskriminator bo‘lmagan ish beruvchidan yuqori bo‘ladi.

Mehnat bozorini segmentatsiyalash nazariyasiga ko‘ra, bozor segmentatsiyasi kasblarni “erkak” va “ayol”ga bo‘lishdan iborat⁵. Albatta, ilmiy faoliyatni ikkala toifaga ham kiritish mumkin. Biroq bu nazariyalar kasblarning gender segmentatsiyasi sabablarini emas, balki ma’lum bir sohada ish bilan band bo‘lgan erkaklarning ustunligini tushuntirishga qaratilgan. Ushbu taqsimotning sababi “ayol” va “erkak” kasblariga oid stereotiplarning mavjudligi hisoblanadi.

Odatda ta’lim tizimiga gender yondashuvini joriy etishda jamiyatda va o‘qituvchilarning kasbiy muhitida noaniq munosabatlar, maktab o‘qituvchilarining gender pedagogika sohasida maxsus bilimga ega emasligi maktab o‘quv dasturlari va darsliklari ta’limning gender tamoyillarini hisobga olmasdan tuzilganligi kabi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shu bilan birga, olimlarning ta’kidlashicha, “Zamonaviy jamiyatda ma’lum bir kasblarda erkak yoki ayolga oid degan tushuncha mavjud”⁶ bo‘lib, darhaqiqat, hozirgi vaqtda mehnat bozori ishchilarni kasblar o‘rtasida taqsimlashda yuqori darajadagi gender asimmetriyasi bilan ajralib turadi, bu “ayol” kasblar (styuardessalar, o‘qituvchilar va boshqalar) va “erkak” kasblar (harbiy xizmatchilar, dasturchilar va boshqalar) mavjudligida namoyon bo‘ladi.

V.V. Kozlov ta’kidlashicha, kasblarni taqsimlashda **gender asimmetriyasi** ishsizlikning ko‘payishiga, ishga joylashish jarayonida qiyinchiliklarga olib keladi, ayollarning “erkak” kasblarini o‘zlashtirish davrida psixologik to‘siqlarga uchrashini keltirib chiqaradi va aksincha⁷.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashda gender yondashuvi nafaqat erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik yoki jismoniy

Kasblarni taqsimlashda gender asimmetriyasi ishsizlikning ko‘payishiga, ishga joylashish jarayonida qiyinchiliklarga olib keladi, ayollarning “erkak” kasblarini o‘zlashtirish davrida psixologik to‘siqlarga uchrashini keltirib chiqaradi va aksincha.

⁴ Becker G. The Economics of Discrimination. Chicago, 1971. – 215 p.

⁵ Bergmann R.B. Occupational segregation, wages and profits when employers discriminate by wage or sex // Eastern Economic Journal. (Stores, CT), Vol. 1, – № 2-3.

⁶ Ковалева И.А. Особенности гендерного аспекта в профессиональной карьере // Психологические науки: теория и практика: материалы Междунар. науч. конф. (г. Москва, февраль 2012 г.). URL <https://moluch.ru/conf/psy/archive/33/1916/> (дата обращения: 27.07.2018).

⁷ Козлов В.В. Гендерная психология. URL: <http://www.iprbookshop.ru/18948> (дата обращения: 27.07.2018).

***Sergeyevaning
o'smirlar
ixtisoslashtirilgan
ta'limni tanlashga
motivatsion
tayyorgarligining
gender
xususiyatlarini
o'rganish bo'yicha
olib borgan
tadqiqotlarida
qizlar va o'g'il
bolalarning kasb
turlarini afzal
ko'rishda ma'lum
xususiyatlar
mavjudligi
aniqlandi.***

farqlarni, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham hisobga oladi. Olimlarning o'spirinlar kasbiy manfaatlaridagi gender farqlari sohasiga oid izlanishlarida o'spirinlarning gender xususiyatlari ularning kasb tanlashlariga ta'sir etishi qayd etilgan.

Sergeyevaning o'smirlar ixtisoslashtirilgan ta'limni tanlashga motivatsion tayyorgarligining gender xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida qizlar va o'g'il bolalarning kasb turlarini afzal ko'rishda o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, o'g'il bolalarning "inson-texnika" turdagi kasblarga, qizlarning esa "inson-san'at" turiga nisbatan kasbiy qiziqishlari yuqori bo'lar ekan⁸.

O'smirlarning kasbiy manfaatlaridagi gender farqlari sohasida mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kasbiy ta'limi sohasida yetarli miqdordagi izlanishlarga qaramay, yosh o'spirinlarda kasbiy qiziqishlarning gender jihati kam o'rganilgan ilmiy tadqiqot sohasi hisoblanadi.

O'smirlik shaxsiy rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, shaxsiyat inqirozi bilan birga keladi, uning doirasida hayotiy, kasbiy va ijtimoiy o'zini o'zi belgilash amalga oshiriladi. Bunday sharoitda qizlar va o'g'il bolalarda o'zining boshqa odamlar orasidagi mavqeyi haqida hayotiy qarashlar shakllanadi, o'zini o'zi anglash, psixosotsial o'zini o'zi belgilash va kasb tanlashga tayyorlik shakllanadi. Aynan shu yosh davrida gender xususiyatlarini hisobga olgan holda uch darajada qurilgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar qayd etiladi: 1) ichki (o'zini ma'lum bir jins vakili sifatida qabul qilish, o'ziga nisbatan munosabat); 2) shaxslararo munosabatlar (tengdoshlar tomonidan idrok etish, qarama-qarshi jinsdagi shaxslarga munosabat va boshqalar); 3) ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabat (qarama-qarshi jinsdagi shaxslar bilan aloqalarga munosabat va boshqalar)⁹.

Yosh o'smirlar o'rtasida kasbiy qiziqishlarni o'rganish natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki¹⁰, o'g'il bolalar o'rtasida tanlovlar soni bo'yicha

⁸ Сергеева Е.Д. Гендерные особенности мотивационной готовности подростков к выбору профильного обучения // Сибирский педагогический журнал. 2008. – № 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gendernyeosobennosti-motivatsionnoy-gotovnosti-podrostkovk-vyboru-profilnogo-obucheniya> (дата обращения: 25.07.2018).

⁹ Филиппова С.А. Социально-психологические особенности гендерной идентичности в юношеском возрасте: дис... канд. психол. наук. – Москва, 2009. – 196 с.

¹⁰ Исследование гендерных особенностей профессиональных интересов у младших подростков в возрасте 13–14 лет проводилось на базе МАОУ «СОШ № 67 г. Челябинска» на этапе предпрофильной подготовки. Выборка испытуемых составила 45 человек, из них 24 мальчика и 21 девочка.

“fizika-matematika” kabi kasbiy faoliyat yo‘nalishi birinchi o‘rinda turadi, qizlar orasida esa bunday kasbiy faoliyat yo‘nalishi “kimyo va biologiya” sifatida eng katta tanlovni oldi. Bizning fikrimizcha, yosh o‘spirinlarda kasbiy faoliyat sohalaridagi mavjud farqlar o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga, ularning individual moyilligiga, kasblarning xilma-xilligi haqidagi g‘oyalariga, o‘qitish va ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida yosh o‘smirlarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirish bo‘yicha maqsadli ish olib borish va gender farqlarini hisobga olgan holda ularning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi¹¹.

Maktabda o‘qish jarayonida kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni shakllantirish shaxsning kelajakdagi kasbiy sohada o‘zini va uning imkoniyatlarini baholashning maqsadli jarayonlaridan biriga aylanadi. Tadqiqotchilar N. E. Kasatkina, E. A. Paxomova va E. L. Rudnev kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni murakkab qaror qabul qilish jarayoni sifatida tushunadilar¹². Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash – bu o‘z ichki resurslarini, shu jumladan qobiliyatlarini, kasb talablari bilan nisbatlarini tahlil qilish natijasida amalga oshiriladigan kasbni mustaqil tanlash jarayoni¹³. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashning samarali shakllanish omillari ixtisoslashtirilgan ta‘lim shakllari, maktabdan tashqari faoliyat usullari, kasb-hunarga yo‘naltirish subyektlari bilan ijtimoiy sheriklik va umuman ta‘lim makonidir.

Xorijiy amaliyotda martaba va kasbga yo‘naltirish sohasida Yevropa Ittifoqining ko‘plab mamlakatlaridagi kasbiy yo‘naltiruvchilardan tashkil topgan “hayot dizayni” xalqaro ijodiy uyushmasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Yoshlarning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashini shakllantirishda yevropalik mutaxassislar “o‘z-o‘zini qurish nazariyasi” va “karyera qurish nazariyasi”ni hisobga olishni tavsiya qiladi¹⁴. A. Uottning ta‘kidlashicha, professional qo‘llab-quvvatlash ham shaxsga, ham butun jamiyatga

Xorijiy amaliyotda martaba va kasbga yo‘naltirish sohasida Yevropa Ittifoqining ko‘plab mamlakatlaridagi kasbiy yo‘naltiruvchilardan tashkil topgan “hayot dizayni” xalqaro ijodiy uyushmasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

¹¹ Барышникова Елена Викторовна, Гендерный аспект в исследовании профессиональных интересов у младших подростков. Балтийский гуманитарный журнал. 2018. – Т. 7. – № 3 (24).

¹² Касаткина Н.Э., Пахомова Е.А., Руднева Е.Л. Формирование профессионального самоопределения обучающихся в условиях регионального рынка труда как фактор устойчивой занятости // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. 2015. – № 2 (31). – С. 181–188.

¹³ Фролова С.В., Чирковская Е.Г. Психологические особенности профессионального самоопределения старшеклассников. Монография. – Москва, 2016. – 160 с.; Циркунова Н.И., Берашевич Я.Д. Гендерные особенности профессионального самоопределения старшеклассников // Право. Экономика. Психология. 2015. – № 2 (2). – С. 71–76.

¹⁴ Savickas M.L. Life Designing: A Paradigm for Career Construction in the 21st Century // Journal of Vocational Behavior. 2009. Vol. 75, – № 3. – P. 239–250. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2009.04.004>.

Kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoni ko'plab o'zaro bog'liq tashqi va ichki omillarning natijasi bo'lib, ularning tizimiga gender yondashuv ham kiradi.

xizmat qiladi¹⁵. Kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoni ko'plab o'zaro bog'liq tashqi va ichki omillarning natijasi bo'lib, ularning tizimiga gender yondashuv ham kiradi¹⁶.

Kasbiy o'zini o'zi belgilashni shakllantirishda gender ahamiyatini o'rganish bo'yicha Saxa Respublikasida (Yakutiya) 464 nafar o'quvchi o'rtasida so'rov o'tkazildi. So'rov ishtirokchilarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: 12-13 yosh – 27 kishi (12,5%), 14-15 yosh – 228 kishi (42%), 16-17 yosh – 179 kishi (31,6%) va 18-19 yosh – 30 kishi (13,9%). So'rov ishtirokchilarining gender tarkibiga kelsak, so'rov 135 nafar o'g'il bolalar hamda 329 nafar qizlar o'rtasida o'tkazildi.

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashiga ta'sir ko'rsatgan omillar reytingida asosiy o'rinda ota-onalar va qarindoshlar (36%), ommaviy axborot vositalari (34%), Internet resurslari (32%), do'stlar va tanishlar (27%), o'qituvchilar (22%) va oxirgi o'rinlarda kitoblarni eslatib o'tishadi (20%). Shuningdek, kasbiy testlar (15%), bandlik xizmatlari mutaxassislari bilan mashg'ulotlar (5%) kabilar turadi.

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashiga va bunda gender stereotiplarini kuchaytirishda jamiyatning ko'plab institutlari kabi ommaviy axborot vositalari va Internet resurslari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ommaviy axborot vositalarida ayollar, asosan, harakat obyekti, qurbonlar va boshqalarga g'amxo'rlik ko'rsatadi, erkaklar esa ixtirochi, kuchli, aqlli va tashabbuskor sifatida tasvirlangan. Ommaviy axborot vositalari erkaklarning kuchi va muvaffaqiyatini ta'kidlayotganda, ayol ham, odatda, tashqi ko'rinishi jihatdan baholanadi. Shunday qilib, ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye, radio, darsliklar, bolalar kitoblari, jurnallar, filmlar va elektron aloqaning ko'plab shakllari erkaklar va ayollar haqidagi stereotiplarni saqlab qolar va tarqatar ekan.

Shuningdek, o'quvchilar E.A. Klimovning kasb turlari tasnifiga muvofiq turli kasb turlarini tanlash uchun mo'ljallangan **“differensial diagnostika so'rovnomasi”** (DDO) metodologiyasining savollariga javob berishdi. Olingan ma'lumotlar qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida kelajakdagi kasb turlarini tanlashdagi farqlarni ko'rsatadi. Shunday qilib, **yoshlar, asosan, “inson – texnologiya” (49 foiz), “inson – ishora tizimi” (21 foiz) va “inson – inson” (14 foiz) sohalaridan kasb tanlashadi. Qizlar “odam – belgilar tizimi” (28 foiz), “shaxs – badiiy obraz” (24 foiz) va “shaxs – shaxs” (23 foiz) sohalarini afzal ko'rishadi.**

¹⁵ Watts A.G. Career Guidance Policy. An International Review // The Career Development Quarterly. 2005. Vol. 54, – № 1. – P. 66–76. <https://doi.org/10.1002/j.2161-0045.2005.tb00142.x>.

¹⁶ Ольховик Г.А. Гендерный подход в формировании профессиональной направленности // Среднее профессиональное образование. 2006. – № 11. – С. 47–49.

Kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha mutaxassislarning fikriga koʻra, bu oʻrta maktab oʻquvchilarining kasblarni “erkak” va “ayol” deb tasniflashi bilan bogʻliq, bu ularning kasbiy oʻzini oʻzi belgilashiga sezilarli taʼsir qiladi. Oʻgʻil bolalar qizlar bilan solishtirganda, texnik kasblarga nisbatan aniqroq kasbiy yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu koʻplab maʼlumotlarga mos keladi, yaʼni bolalikdan boshlab toʻkexsa yoshgacha erkaklar texnologiya bilan bogʻliq kasblarni afzal koʻrishlarini koʻrsatadi.

“DDO” soʻrovnomasi va metodologiyasining natijalariga koʻra, oʻrta maktab oʻquvchilari oʻrtasida gender masalalari boʻyicha ustuvor kasblar toʻgʻrisida xulosalar chiqariladi. Maʼlum boʻlishicha, yigitlarning sevimli oʻquv fanlari tarix (43%), informatika (31,2%), kimyo (31%), fizika (27%), matematika (26%), jismoniy tarbiya (24%) va ingliz tili (21 %).

Qizlarda esa sevimli maktab fanlari adabiyot (41%), tarix (33%), ijtimoiy fanlar (30%) va ingliz tili (27%). Shunday qilib, yigitlar aniq fanlar va tabiiy fanlar sikliga koʻproq qiziqishadi, qizlar esa gumanitar fanlarni afzal koʻrishar ekan.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni xulosa qilish mumkinki, ikkala jinsdagi oʻquvchilar kasb tanlashiga taʼsir qiluvchi eng muhim omillar shaxsiy xususiyatlar: qobiliyat va qiziqishlar bilan bir qatorda ota-onalar va qarindoshlar, doʻstlar va tanishlarning maslahatlari ham muhim ahamiyatga ega ekan¹⁷.

Xulosa qilib aytganda, oʻgʻil va qizlarni kasbga tayyorlash mahalliy emas, balki konseptual tabiatning oʻzgarishi degan xulosaga kelindi, chunki u jamiyatning qiymat tizimini oʻzgartirishni, yoshlarni kasbiy yoʻnaltirish jarayonida jinsiy roldan gender yondashuviga oʻtishni talab qiladi.

Agar maktab oʻgʻil va qizlarni turli xil ijtimoiy rollar va kasblarga tayyorlashni davom ettirsa, vaziyat oʻzgarmaydi. Rasmiy ravishda taʼlim tizimi oʻgʻil va qizlarga kasb tanlashda toʻsqinlik qilmaydi. Biroq bolalar oʻyinlaridan boshlab, darsliklar, qizlar uchun uy xoʻjaligi darslari va oʻgʻil bolalar uchun chilangar yoki duradgorlik orqali kasblarning “erkak” va “ayol”ga boʻlinishi haqidagi stereotiplar yoshlarning ongiga quyib borilishi va ushbu stereotiplar kasb tanlashda muhim rol oʻynashda davom etayotganini tasdiqlaydi. Shu bois barcha oʻquv dasturlari va darsliklar ayollarning gender stereotiplarini mustahkamlamaydigan tarzda taqdim etilishi kerak.

Masalan, oʻrta maktab ingliz tili darsliklari matnlari va tasvirlaridagi ayollar ulushi Malayziya va Indoneziyada 44%, Bangladeshda 37% va

Shuni xulosa qilish mumkinki, ikkala jinsdagi oʻquvchilar kasb tanlashiga taʼsir qiluvchi eng muhim omillar shaxsiy xususiyatlar: qobiliyat va qiziqishlar bilan bir qatorda ota-onalar va qarindoshlar, doʻstlar va tanishlarning maslahatlari ham muhim ahamiyatga ega ekan.

¹⁷ Панина Светлана Викторовна. Гендерный аспект профессионального самоопределения учащейся молодежи. <https://doi.org/10.24158/spp.2018.1.17>

Har bir o'quvchi va ularning ota-onalari gender stereotiplari asosida qaror qabul qilish xavfini kamaytirish uchun kelajakdagi ta'lim va mehnat bozori imkoniyatlari haqida sifatli ma'lumotlarga ega bo'lishlari, mavjud ma'lumotlardan maksimal darajada foydalanish uchun ularga ma'lumotli maslahatchi yordami kerak bo'ladi.

Pokistonning Panjob viloyatida 24% ni tashkil etgan. Efiopiya ta'lim sohasida ham gender stereotiplar saqlanib qolmoqda, buni ayollarning darsliklarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish jarayonidan chetlatilgani bilan izohlash mumkin¹⁸.

Xulosa va takliflar:

– har bir maktab va kollej o'quvchilari, ota-onalar, o'qituvchilar, ish beruvchilar tomonidan ma'lum hamda tushunarli bo'lgan o'rnatilgan kasbiy ta'lim va yo'nalish dasturiga ega bo'lishi kerak;

– har bir o'quvchi va ularning ota-onalari gender stereotiplari asosida qaror qabul qilish xavfini kamaytirish uchun kelajakdagi ta'lim va mehnat bozori imkoniyatlari haqida sifatli ma'lumotlarga ega bo'lishi, mavjud ma'lumotlardan maksimal darajada foydalanishi uchun ularga ma'lumotli maslahatchi yordami kerak bo'ladi;

– turli bosqichlarda o'quvchilarning kasbiy yo'nalishga bo'lgan ehtiyojlari har xil bo'ladi, shu bois maslahat va yordam olish imkoniyati har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak bo'ladi, maktabning kasbga o'qitish dasturlari tenglik va xilma-xillik masalalarini o'z ichiga olishi lozim;

– har bir o'quvchi ish beruvchilardan ish, bandlik va ish joyida qadrlanadigan ko'nikmalar haqida ma'lumot olish uchun bir nechta imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Bu ma'ruzachilar tashrifi, murabbiylik va korporativ sxemalarni o'z ichiga olgan bir qator boyitish tadbirlari orqali amalga oshirilishi mumkin;

– har bir o'quvchi mansab imkoniyatlarini o'rganish va o'z tarmoqlarini kengaytirish uchun ish safari, ish kuzatish yoki ish tajribasi orqali ish joyida birinchi kasbiy tajribaga ega bo'lishi kerak;

– barcha o'quvchilar o'zlari uchun mavjud bo'lgan ta'lim imkoniyatlarini to'liq tushinishlari lozim, bunga akademik va kasbiy yo'nalishlar, shuningdek, maktablar, kollejlar, universitetlar va ish joylarida o'qitish kiradi;

– har bir o'quvchi ichki (maktab xodimlari) yoki tashqi bo'lishi mumkin bo'lgan kasb bo'yicha maslahatchi bilan suhbat o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ular tegishli darajada o'qitilishi kerak bo'lib, bu ularning shaxsiy ehtiyojlariga qarab turlicha uyushtirilishi lozim bo'ladi.

¹⁸ Global education monitoring report, 2020: Inclusion and education: all means all. Global education monitoring report 2020: gender report, A new generation: 25 years of efforts for gender equality in education. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373718> (дата обращения: 16.02.2021).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.
2. Чекалкина А.А. Гендерная психология. – Москва: «Ось-89», 2006. – 131 с.
3. Мезенцева Е.Б. Гендер и экономика: мировой опыт и экспертиза российской практики. – Москва: ИСЭПН РАН-МЦГБ «Русская панорама», 2002. – С. 299–328.
4. Becker G. *The Economics of Discrimination*. Chicago, 1971. – P. 215.
5. Bergmann R.B. *Occupational segregation, wages and profits when employers discriminate by wage or sex // Eastern Economic Journal*. (Stores, CT), Vol. 1, – № 2-3.
6. Ковалева И.А. Особенности гендерного аспекта в профессиональной карьере // Психологические науки: теория и практика: материалы Междунар. науч. конф. (г. Москва, февраль 2012 г.). URL <https://moluch.ru/conf/psy/archive/33/1916/> (дата обращения: 27.07.2018).
7. Козлов В.В. Гендерная психология. URL: <http://www.iprbookshop.ru/18948> (дата обращения: 27.07.2018).
8. Сергеева Е.Д. Гендерные особенности мотивационной готовности подростков к выбору профильного обучения // Сибирский педагогический журнал. 2008. – № 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gendernyeosobennos-timotivatsionnoy-gotovnosti-podrostkovk-vyboru-profilnogo-obucheniya> (дата обращения: 25.07.2018).
9. Филиппова С.А. Социально-психологические особенности гендерной идентичности в юношеском возрасте: дис... канд. психол. наук. – Москва, 2009. – 196 с.
10. Исследование гендерных особенностей профессиональных интересов у младших подростков в возрасте 13–14 лет проводилось на базе МАОУ «СОШ № 67 г. Челябинска» на этапе предпрофильной подготовки. Выборка испытуемых составила 45 человек, из них 24 мальчика и 21 девочка.
11. Барышникова Елена Викторовна, Гендерный аспект в исследовании профессиональных интересов у младших подростков. Балтийский гуманитарный журнал. 2018. – Т. 7. – № 3 (24).
12. Касаткина Н.Э., Пахомова Е.А., Руднева Е.Л. Формирование профессионального самоопределения обучающихся в условиях регионального рынка труда как фактор устойчивой занятости // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. 2015. – № 2 (31). – С. 181-188.
13. Фролова С.В., Чирковская Е.Г. Психологические особенности профессионального самоопределения старшеклассников: монография. – Москва, 2016. – 160 с.; Циркунова Н.И., Берашевич Я.Д. Гендерные особенности профессионального самоопределения старшеклассников // Право. Экономика. Психология. 2015. – № 2 (2). – С. 71–76.
14. Savickas M.L. *Life Designing: A Paradigm for Career Construction in the 21st Century // Journal of Vocational Behavior*. 2009. Vol. 75, – № 3. pp. 239-250. <https://doi.org/10.1016/j.jvb.2009.04.004>.
15. Watts A.G. *Career Guidance Policy. An International Review // The Career Development Quarterly*. 2005. Vol. 54, – № 1. pp. 66–76. <https://doi.org/10.1002/j.2161-0045.2005.tb00142.x>.
16. Ольховик Г.А. Гендерный подход в формировании профессиональной направленности // Среднее профессиональное образование. 2006. – № 11. – С. 47-49.
17. Панина Светлана Викторовна. Гендерный аспект профессионального самоопределения учащейся молодежи. <https://doi.org/10.24158/spp.2018.1.17>
18. *Global education monitoring report, 2020: Inclusion and education: all means all. Global education monitoring report 2020: gender report, A new generation: 25 years of efforts for gender equality in education*. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373718> (дата обращения: 16.02.2021).

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021. The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materialari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.